



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60210800 – Amaliy san'at: badiiy kulolchilik
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60210800 – Amaliy san'at: badiiy kulolchilik

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: SIDIKOV KOMILJON BOYMIRZAYEVICH

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Dotsent



A'zo: LELIA PIURVAN RUS

Ovidius University

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260093
Xulosa raqami	923
Xulosa sanasi	15.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy. Guvohnoma: MAS № 0000138, 19.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Amaliy san'at: badiiy kulolchilik
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60210800
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000138, 19.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60210800 – Amaliy san'at: badiiy kulolchilik
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60210800 – Applied Art: Artistic Ceramics
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60210800 – Прикладное искусство: художественная керамика
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi, kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Amaliy san'at ustasi, o'qituvchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, "Amaliy san'at va dizayn" kafedrası tomonidan ishlab chiqilgan 60210800 – Amaliy san'at: badiiy kulolchilik ta'lim yo'nalishi yuqori darajada tayyorlangan va puxta ishlab chiqilgan loyiha sifatida baholanadi. Dasturga mas'ul tarkibiy tuzilma normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirilgan bo'lib, uning vakolatlari va funksiyalari aniq belgilangan. Universitet mavjud resurslardan samarali foydalangan holda, qo'shimcha byudjet xarajatlarisiz sifatli ta'lim jarayonini tashkil etish salohiyatiga ega ekanligi aniqlanadi, bu esa boshqaruv tizimida resurslarni oqilona rejalashtirish yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi. 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlanish rejasi strategik maqsadlar, ustuvor yo'nalishlar va moliyaviy barqarorlikni qamrab olgan bo'lib, u universitetning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirilgan. Ichki sifatni ta'minlash tizimida monitoring, baholash hamda manfaaddor tomonlar ishtirokini ta'minlovchi mexanizmlar joriy etilgan. Mazkur tashkiliy-boshqaruv modeli ta'lim dasturining barqaror amalga oshirilishi uchun ishonchli institutsional asos yaratadi. Shu asosda ekspert komissiyasi tomonidan tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash mezonlari muvofiq deb baholanadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida mazkur ta'lim dasturi milliy normativ talablar va xalqaro ilg'or tajribalar asosida puxta ishlab chiqilgan tizimli o'quv loyihasi sifatida baholanadi. Dasturning muhim jihati shundaki, unda nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va ilmiy-tadqiqot faoliyati "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, bu dastur mazmunining metodologik ustunligi sifatida e'tirof etiladi. An'anaviy "ustoz-shogird" maktabining zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan 3D modellashtirish va sun'iy intellekt vositalari bilan

uyg'unlashtirilgani ijobiy jihat sifatida baholanadi, chunki bu badiiy kulolchilik sohasini zamonaviy dizayn amaliyoti bilan uzviy bog'laydi. Dastur maqsadlari, o'quv natijalari va kompetensiyalari o'zaro mantiqiy bog'langan hamda Davlat ta'lim standartlari va Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq belgilangan. Fanlarning bosqichma-bosqich joylashtirilgani talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini izchil rivojlantirish imkonini yaratadi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi mazmuni bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida mazkur ta'lim dasturi O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari, jumladan Davlat ta'lim standartlari va Milliy malakalar ramkasi talablariga to'liq muvofiq holda ishlab chiqilgani aniqlanadi. Dasturning nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari (Royal College of Art, SAIC va Alfred University) tajribasi asosida shakllantirilgani uning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholanadi. O'quv rejalari va fan dasturlari (sillabuslar) mehnat bozori ehtiyojlari hamda ish beruvchilarning takliflari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, nazariy ta'lim amaliy mashg'ulotlar, ustaxona ishlari va ijodiy loyihalar bilan uyg'unlashtirilgan. Badiiy kulolchilik yo'nalishi uchun amaliy-ustaxona komponentining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki kasbiy mahorat real materiallar va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash jarayonida shakllanadi. Baholash tizimining shaffofligi, obyektivligi hamda akademik halollikni ta'minlash mexanizmlarining mavjudligi ijobiy baholanadi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan o'quv jarayoni va baholash tizimi muvofiq deb baholanadi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, "Amaliy san'at: badiiy kulolchilik" ta'lim dasturiga qabul qilish, talabalar harakatini boshqarish va ularni qo'llab-quvvatlash tizimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 578-son qarori hamda universitetning ichki me'yoriy hujjatlari asosida shaffof, adolatli va tizimli tashkil etilgani aniqlanadi. Qabul jarayonida barcha abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, ijodiy va test sinovlarining xolisligini ta'minlash maqsadida videokuzatuv hamda yopiq baholash usullari joriy etilgani ijobiy baholanadi. Yillik 25 nafar qabul kvotasi universitetning mavjud resurslari va infratuzilmasi bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib, bu talabalar soni va mavjud

imkoniyatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlaydi. Talabalar harakatini, jumladan o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va chetlashtirish jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar hamda talabalarni akademik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi talabaning ta'lim traektoriyasini himoya qiladi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan talabalar faoliyati yo'nalishi bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasining kadrlar resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli hamda shaffof mexanizm sifatida baholanadi. Mavjud 16 nafar professor-o'qituvchilar tarkibi va 43,75 foizlik ilmiy salohiyat bakalavriat ta'lim dasturini yuqori saviyada amalga oshirish uchun yetarli akademik baza yaratadi. Sirtqi ta'lim shaklining yopilishi hamda o'quv yuklamalarining optimallashtirilishi natijasida "Amaliy san'at: badiiy kulolchilik" ta'lim yo'nalishini qo'shimcha kadrlar bilan ta'minlash imkoniyati yaratilgan. Badiiy kulolchilik yo'nalishida professor-o'qituvchilarning amaliy ijodiy va texnologik tajribaga ega bo'lishi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan kadrlar tarkibining mutaxassislik profiliga muvofiqligi ijobiy baholanadi. Kadrlar malakasini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va rag'batlantirish mexanizmlarining mavjudligi inson resurslarini boshqarish tizimining izchilligini ta'minlaydi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan inson resurslari yo'nalishi bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha "Amaliy san'at: badiiy kulolchilik" ta'lim dasturining moddiy-texnik bazasi, infratuzilmasi va raqamli ta'lim muhiti tahlili natijasida ular asosan ilg'or talablarga muvofiq shakllantirilgani aniqlanadi. Fakultetdagi 5172 m² umumiy maydon, 25 o'rinli ixtisoslashtirilgan kulolchilik ustaxonasi, zamonaviy mufel pechlari, sirlash laboratoriyasi va rangtasvir studiyalari 25 nafar talabaning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydi. Shu bilan birga, kulolchilik laboratoriyalarining to'liq jihozlanmagani hamda havo so'rish (ventilyatsiya) tizimlarini yanada takomillashtirish zarurligi konstruktiv kamchilik sifatida qayd etiladi. Mazkur holat badiiy kulolchilik jarayonining texnologik va mehnat xavfsizligi talablarini yanada to'liq ta'minlash nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Axborot-resurs markazi, elektron kutubxona va raqamli ta'lim

resurslarining mavjudligi o'quv jarayonini axborot jihatidan samarali qo'llab-quvvatlaydi. Aniqlangan kamchilik ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda laboratoriyalarni bosqichma-bosqich qo'shimcha jihozlash orqali bartaraf etilishi mumkin. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Kulolchilik laboratoriyalari to'liq jihozlanmagan hamda havo so'rg'ich (ventilyatsiya) tizimlarini takomillashtirish talab etiladi.
- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini (hozirda 43,75 %) oshirish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Kulolchilik ustaxona va laboratoriyalarini to'liq jihozlash hamda ventilyatsiya (havo so'rg'ich) tizimlarini takomillashtirish.
- ✓ Maqsadli doktorantura orqali professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirish.
- ✓ Xalqaro yetakchi muassasalar (Royal College of Art, SAIC, Alfred University) bilan hamkorlikni davom ettirish.
- ✓ An'anaviy "ustoz-shogird" maktabini zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirishni chuqurlashtirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Chirchiq davlat pedagogika universiteti" davlat muassasasida 60210800 – "Amaliy san'at: badiiy kulolchilik" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar ("Amaliy san'at va dizayn" kafedrası), Milliy malakalar ramkasi va davlat ta'lim standartlari asosida, an'anaviy "ustoz-shogird" maktabini zamonaviy

raqamli texnologiyalar (3D, sun'iy intellekt) bilan uyg'unlashtirgan o'quv dasturi hamda ixtisoslashgan kulolchilik ustaxonasi bilan ta'minlangan moddiy-texnik baza shakllantirilgan. Barcha yo'nalishlar belgilangan mezonlarga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar — kulolchilik laboratoriyalarini to'liq jihozlash va ventilyatsiya tizimlarini takomillashtirish — dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, laboratoriya jihozlanishini bosqichma-bosqich to'ldirish orqali bartaraf etilishi mumkin. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

